

O'QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Axmedova Mahliyo Ruziboy qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning o'qish savodxonligini shakllantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o'rni yoritilgan. Interaktiv ta'lim vositalari, raqamli resurslar, multimedia platformalari va mobil ilovalarning o'quvchilarda matnni tahlil qilish, tushunish va ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, zamonaviy texnologiyalar, AKT, interaktiv ta'lim, raqamli resurslar.

Bugungi kunda ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar keng imkoniyatlar yaratmoqda. O'quv jarayoniga raqamli vositalarni tatbiq etish orqali o'quvchilarning matn bilan ishlash, tushunish, tahlil qilish va izohlash kabi malakalari rivojlanadi.

Shunikdek, ta'lim tizimida interaktiv usullar, innovatsion yondashuvlar, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan e'tibor va qiziqish tobora ortib bormoqda. Bunday holatning yuzaga kelishiga asosiy sabab shundaki, ilgari an'anaviy ta'limda o'quvchilarga tayyor bilimlar berilib, ularni faqat eslab qolishga va takrorlashga yo'naltirilgan bo'lsa, hozirda zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilar bilimlarni o'zlari mustaqil izlab topishlari, o'rganishlari, tahlil qilishlari va eng muhimi, xulosalarga o'zlari kelishlariga imkon yaratilmoqda.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchining shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi, yo'naltiruvchi va boshqaruvchi sifatida maydonga chiqmoqda. U sharoit yaratadi, rag'batlantiradi va o'quvchi-talaga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa ta'lim jarayonining markaziga o'quvchi-talaba chiqadi va uning faolligi, fikrlashi, tashabbuskorligi asosiy omilga aylanadi.

Oliy ta'lim muassasalari, fakultetlar va kasb-hunar tayyorlash markazlarida yetuk, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda interaktiv o'qitish metodlarining o'rni beqiyosdir. Pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va o'qituvchining kasbiy mahorati o'quvchilarda chuqur bilim, puxta ko'nikma va amaliy malakalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

“Innovatsiya” atamasi inglizcha “innovation” soʻzidan olingan boʻlib, “yangilik kiritish”, “yangilanish” degan maʼnolarni bildiradi. Shu maʼnoda, innovatsion texnologiyalar — bu taʼlim jarayoniga, pedagogik faoliyatga, oʻquvchi va oʻqituvchi oʻrtasidagi munosabatlarga yangicha yondashuv, zamonaviy oʻzgarishlar kiritish demakdir. Bu yangilanishlar, ayniqsa, interaktiv metodlar asosida samarali tarzda amalga oshiriladi.

Interaktiv metodlar — bu taʼlim jarayonining tarkibiy qismi boʻlib, oʻqituvchi va oʻquvchi (yoki talabalar)ning birgalikdagi faoliyati asosida quriladi. Ular jamoaviy fikrlash, fikr almashish, muhokama, tahlil va bahs-munozaralar orqali oʻquvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv quyidagi afzalliklari bilan ajralib turadi:

Oʻquvchini dars jarayoniga befarq boʻlmaslikka, faol qatnashishga va fikr bildirishga undaydi;

Mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi;

Har bir oʻquvchi-talabaning bilimga boʻlgan qiziqishini oshiradi va uni izlanishga yoʻnaltiradi;

Pedagog va oʻquvchi oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, taʼlimni ikki tomonlama faol jarayonga aylantiradi.

Yaʼni, zamonaviy taʼlimda interaktiv metodlar va innovatsion texnologiyalarni qoʻllash taʼlim samaradorligini oshirishda, oʻquvchilarning bilim va koʻnikmalarini mustahkamlashda, ularni mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor va bilimga chanqoq shaxs sifatida tarbiyalashda nihoyatda muhim omil hisoblanadi.

Oʻqish savodxonligi – bu nafaqat matnni oʻqiy olish, balki uni tushunish, tahlil qilish, mantiqiy fikr yuritish va oʻz fikrini bayon eta olishdir. Bu kompetensiyani shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida samarali natijalarga erishish mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- Interaktiv doskalar – matnni vizual tahlil qilish imkonini beradi;
- Multimedia materiallar – audiokitoblar, animatsiyalar, videodarsliklar orqali oʻqishga boʻlgan qiziqishni oshiradi;
- Mobil ilovalar – “Bilimdon”, “Kutubxona”, “Kutubxonachi” kabi ilovalar orqali oʻquvchilar individual mashqlarni bajaradi;
- Elektron resurslar – elektron darsliklar va testlar orqali nazoratni mustahkamlashga yordam beradi.

Oʻquvchilarning fikrlash, tahlil qilish va mustaqil izlanish koʻnikmalarini rivojlantirishda klaster, aqliy hujum, insert va konseptual xaritalar kabi metodlar multimedia vositalari bilan uygʻunlashtiriladi.

O'qituvchi texnologiyalarning faqat foydalanuvchisi emas, balki metodik tashkilotchisi sifatida o'quvchini ongli ravishda o'qishga yo'naltirishi kerak. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchining individual yondashuvlarini hisobga olgan holda mos texnologiyalarni tanlashi muhim.

Zamonaviy ta'lim manzarasi uzluksiz rivojlanib borayotgan bir paytda, o'qituvchilar, ta'lim siyosatini belgilovchi mutasaddilar hamda soha bilan bog'liq barcha manfaatdor tomonlar innovatsion pedagogik texnologiyalarning salohiyatini to'liq anglab yetishlari va undan samarali foydalanishlari zarur bo'lmoqda. Ayniqsa, ona tilini o'qitish, o'rganish va o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirish sohasida bu texnologiyalar o'zgartiruvchi kuch sifatida maydonga chiqmoqda.

Kutilishicha, kelgusida ham innovatsion pedagogik yondashuvlar ona tili va o'qish savodxonligi fanlarida muhim o'rin egallashda davom etadi. Raqamli texnologiyalar tobora murakkab va keng qamrovli tus olayotgani bois, ular o'quvchilarning individual o'rganish ehtiyojlarini qondirish, ularning qiziqishini oshirish va dars jarayoniga faol jalb etishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Masalan, multimedia vositalari, interaktiv taqdimotlar, raqamli darsliklar va onlayn o'quv platformalari orqali o'qituvchilar o'quvchilarning bilim olish usullarini diversifikatsiyalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday texnologiyalar orqali har bir o'quvchining bilim darajasi, o'zlashtirish sur'ati va qiziqishlariga mos ravishda moslashtirilgan darslar tashkil etilishi mumkin. Bu esa ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning amalda tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, raqamli vositalar o'qituvchilarga yangicha, samarali va innovatsion dars rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt va adaptiv o'quv tizimlarining joriy etilishi orqali o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ularga mos mashg'ulotlar taklif qilish ham osonlashadi.¹

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalar o'qish savodxonligini shakllantirish jarayonida muhim vosita hisoblanadi. Ular yordamida o'quvchining faolligi, mustaqilligi va ijodiy fikrlashi rivojlanadi. Biroq texnologiyalarni to'g'ri tanlash, pedagogik maqsadlarga muvofiq qo'llash va doimiy metodik yangilanish bu jarayonning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunov, S. (2022). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimova, M. (2020). Interfaol metodlar va o'quv texnologiyalari. Boshlang'ich ta'lim metodikasi, №3, 44–49.
3. Azizova, Z. (2022). Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.

¹ Azizova, Z. (2022). Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.